



MUSIQA VA UNING USLUBIYATI

Rametullaeva Gulparshin

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti Musiqa talimi yo'nalishi 4 -kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7243525>

ARTICLE INFO

Received: 10th October 2022

Accepted: 15th October 2022

Online: 24th October 2022

KEY WORDS

Musiqa, san'at, estetik ta'sir, ritm, ijro, kuy, nota.

ABSTRACT

Ushbu maqolada musiqa atamasiga keng ma'noda tushuncha beriladi. Musiqaning inson organizmiga ta'siri izohlanadi. Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tarixi, imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Inson avvalo jamiyatda shakllanishi, shaxs sifatida kamol topishi uchun bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Ushbu jarayonda ta'sir etuvchi faktorlar asosiy o'rinni egallaydi. Tashqi va ichki omillar inson fiziologiyasi va ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tashqi omillar qatoriga yaxlit bir muhit sifatida musiqani kiritish mumkin. Musiqa-tovushlar san'ati ya'ni o'zida ma'lum bir musiqiy asarni kompleks tarzda ifoda etuvchi san'at turi. Musiqa-hissiy kechinmalar, fikrlar va tasavvur doirasini jamlagan holda aks ettiruvchi majmua. Musiqada asosan ruhiy kechinmalar ifodalanadi. Shuning uchun ham uning mazmuni o'zgaruvchan hisoblanadi. Uning tarkibiy qismi musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Asosan musiqada insonlarning kayfiyatlari mujassamlashtiriladi ya'ni ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, g'amginlik, qo'rquv kabi holatlarni uchratish mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, musiqa irodaviy sifat ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadi. Musiqaning ifoda tasvir imkoniyatlari

mashhur olimlar va mutafakkirlar, tasavvuf olami arboblari tomonidan tadqiq qilingan. Musiqa asarlari mazmun-mohiyatida obrazlarning o'zaro aloqasi keng tadbiiq etiladi. Musiqa mazmun jihatidan lirik, epik va dramatik turlarga bo'linadi. Lirik yo'nalish ruhiy holatlarni kuchliroq ifoda etadi.

Har uchchala yo'nalishda ham musiqa matni ma'lum qolip va qofiyaga ega bo'ladi. Musiqaning mazmuni shaxsiy, milliy va umumbashariy qiymatlar negizida shakllanadi. Unda xalq va jamiyatning tarixiy-ijtimoiy fikr va kechinmalari ifodalanadi. Musiqa shakllari o'sha davrning madaniy-ma'rifiy talablariga to'liq javob berishi kerak. Musiqa insonning axloqiy va estetik qarashlarini shakllantiruvchi manbadir. Shu boisdan ham musiqa hissiy tuyg'ularni ruvojlantirish vositasi sifatida ahamiyatlidir. Nutq tovushlar tizimidan iborat bo'lsa, musiqa muayyan sadolar tizimidan tashkii topgan. Musiqadagi tovushlarning baland-pastligi, uzun-qisqaligi va tembrning kuchlanish darajasi



kabi ko'rsatkichlar nutqdan farqlanadi. Musiqadagi asosiy badiiy vosita kuy bo'lib hisoblanadi. Musiqaning og'zaki shakldagi uslublarida kuy badiiy obrazning yagona ifodasi sanaladi. Musiqiy asarlardagi mavzular rivoji uning asosiy shaklini tashkil etadi. Musiqa shakli asarning moddiy asosidir.

Musiqa inson madaniy va ma'naviy hayotida o'ziga xos o'ringa ega. U ko'ngil ochish uchun, marosim va bazmlar turli tadbirlar uchun ijro etiladi. Shuning uchun musiqiy asarlar o'z mazmuniga muvofiq tarzda bir necha tur va janrlarga ajratiladi. Maishiy mavzudagi musiqalarga alla, narsiya, sarbozcha kabilarni kiritish mumkin. Mavzu jihatidan musiqalar o'zi ifodalagan tushunchalarga sodda, lo'nda va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Kino va sahna asarlari uchun yaratilgan musiqiy asarlar mana shu jarayonning ta'sirchanligini oshirib beradi va ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Musiqa bir qancha san'at janrlarida ahamiyatlidir ; opera, musiqali drama, komediya yo'nalishlarida xonandalik, xo'r san'ati va orkestr ijrosidan keng foydalaniladi. Ular badiiy obrazlarni musiqa orqali ifoda etadi. Musiqiy faoliyat asosan 3 bosqichda amalga oshadi; ijod, ijro va tinglash. Ijod bosqichida muallif o'z tasavvurida badiiy g'oya va shaklini yaratadi. Ijro jarayonida ijrochi tomonidan ma'lum bir o'zgarishlarga ruxsat beriladi ya'ni ijrochi o'zining dunyoqarashi, estetik tasavvuridan kelib chiqib musiqiy asarni boyitadi. Tinglovchilar musiqaga ijrochining mahoratidan kelib chiqqan holda baho beradi. Hozirgi kunda musiqa yaratishda ijrochi va kompozitorlar hamkorlik asosida faoliyat olib boradi. Musiqaning mazmun-mohiyati asarni ijro etadigan san'atkorning mahorati orqali namoyon bo'ladi. Shuning

uchun ham san'atkordan o'ziga yarasha tajriba talab etiladi.

Musiqaning paydo bo'lishida turli farazlar yuzaga kelgan. Hissiyotga asoslangan nutq ohangi, qushlarning sayrashi, ibtidoiy odamlarning mehnat usullari, marosim jarayonlari bilan bog'liq qarashlar mavjud. Ibtidoiy jamiyatda inson faoliyati jarayoni bilan bog'liq ravishda boshqa san'at turlari ham paydo bo'lgan. Musiqa mehnat va marosim jarayonlarining asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu jarayonda xalq ommasining menati, zahmati va ezgu o'y-maqсадlari ma'lum ritm asosida shakllantirilgan bo'ladi. Musiqiylik ayni jarayonning ta'sirchanligini oshiradi. Uyg'onish davrida Yevropa xalqlari orasida insonparvarlik g'oyalari va dunyoviy tizimga asoslangan musiqa san'atida badiiy-estetik maqsadlar alohida o'ringa ega bo'ldi. Bu davrda cholg'u va vokal ijrochiligi rivoj topdi. Rim, Venetsiya, Angliyada yangi kompozitorlik maktablari tashkil topdi. Yigirmanchi asrda yuz bergan ilmiy-texnik inqilob ta'sirida musiqani tinglovchilarga yetkazish va tinglash yo'nalishlarida yangidan-yangi yo'nalishlar yuzaga keldi. Musiqa sharoitga va muhitga hamohang tarzda rivojlanadi. Musiqa san'ati O'zbekistonda xalq og'zaki ijodi an'anasidagi professional yo'nalish sifatida rivojlanib kelgan. Xalq musiqasining lapar, terma kabi ko'rinishlari mavjud bo'lsa, og'zaki an'ananing doston, ashula, maqom kabi janrlari mavjud. O'zbek musiqa merosida geografik hududiy jihatdan farqlanadigan 4ta asosiy mahalliy turdagi uslub mavjud. 1930-40-yillari O'zbekistonda yangi musiqa janrlari; opera, balet, kamer musiqa kabilari paydo bo'ldi va natijada kompozitorlik



keng rivojlandi.1950-60-yil ommaviy musiqaning estrada yo'nalishi paydo bo'ldi. Musiqashunoslik san'atshunoslikning asosiy sohasi bo'lib hisoblanadi.Musiqa nazariyasi,tarixi,etnomusiqashunoslik,musiqiy tandiq kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.Nazariy musiqashunoslik umumiy tarzda muayyan davr musiqiy asar qurilishi,tuzilish qoidalari,tilivva xususiyatlarini o'rganadi.Tarixiy musiqashunoslik tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda ifoda etiladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki,musiqa kuchli ta'sir etuvchi omildir.Musiqa ko'pincha insin kayfiyatini o'zida yaqqol aks ettiradi.Shaxslar sog'ligi,organizmiga ta'sir qiladi.Inson hayoti 2qismdan

iborat;atrofdagi muhit va qalbidagi o'ziga xos olam.Musiqa ko'proq qalbdagi ichki olamga ta'sir etadi.Hissiy kechinmalarni uyg'otadi.Musiqa doimo bizning xotiralarimiz bilan parallel harakatlanadi.Ohang va unga mos tarovat ko'ngil tubining eng chuqur joylarigacha yetib boradi.Musiqa davolovchi xususiyatga ham ega.Asosan mediatatsiya uchun mumtoz kuylardan foydalaniladi. Musiqa-ruhiyatning ozuqasidir.An'anaviy musiqa va qo'shiqlar odamlarni mehr-oqibatga,chin insoniy tuyg'ular sari chorlaydigan asosiy tizim.Barkamol avlod tarbiyasida musiqaviy tarbiya hamisha yuqori o'rinlarda turadigan yo'nalishlardan biridir.

References:

1. Solomonova "O'zbek musiqasi tarixi" O'qituvchi nashriyoti Toshkent-1981
2. Karomatov "O'zbek cholg'u musiqasi" Toshkent-1972
3. "O'zbek milliy ensiklopediyasi" Toshkent-2000.